



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 457-462 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING SAMARALI FAOLIYATINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI



Masimjanova Muqaddam Xikmatovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda majburiy sug'urta bozorining rivojlanishi va uning samarali ishlashini ta'minlash yo'llari tahlil qilinadi. Sug'urta bozorining hozirgi holati, shuningdek, bozorni yanada rivojlantirish uchun tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: majburiy sug'urta, sug'urta bozorining rivojlanishi, raqamlı texnologiyalar, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the development of the mandatory insurance market in Uzbekistan and the ways to ensure its effective functioning. The current state of the insurance market is examined, and recommendations for further market development are provided.

Keywords: mandatory insurance, insurance market development, digital technologies, economic stability.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие рынка обязательного страхования в Узбекистане и способы обеспечения его эффективного функционирования. Рассматривается текущее состояние рынка страхования и даются рекомендации для дальнейшего развития рынка.

Ключевые слова: обязательное страхование, развитие рынка страхования, цифровые технологии, экономическая стабильность.

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash va fuqarolarning xavfsizligini oshirishda sug'urta bozorining o'rni alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, majburiy sug'urta tizimi iqtisodiy xavf-xatarlar, tabiiy ofatlar va boshqa kutilmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, fuqarolar va yuridik shaxslarni himoya qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekistonda majburiy sug'urta tizimi, turli ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda keng qo'llanilmoqda va uning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu tizimning to'liq salohiyatidan foydalanish uchun bozorni yanada rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish va samarali ishlashini ta'minlash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurdir.

Majburiy sug'urta - bu davlat tomonidan fuqarolar, yuridik shaxslar yoki tashkilotlar uchun belgilangan shartlar asosida amalga oshiriladigan sug'urta turi bo'lib,

xavf-xatarlar va kutilmagan holatlar yuzaga kelganda, sug'urta kompaniyasi tomonidan zararni qoplashni ta'minlaydi. O'zbekistonda majburiy sug'urta tizimi 1991-yillardan buyon rivojlanib, ayniqsa, avtomobil egalarining fuqarolik javobgarligini sug'ortalash, ishchilarning hayoti va salomatligini sug'ortalash kabi yo'nalishlar joriy etilgan. Biroq, ushbu tizimni yanada kengaytirish va uni samarali qilish uchun mavjud bozor infratuzilmasining imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish zarur. Shuningdek, majburiy sug'urta bozorining o'sishiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar mavjud, jumladan, sug'urta xizmatlarining past talabga ega bo'lishi, sug'urta mahsulotlari va xizmatlari haqidagi bilimning yetarli darajada tarqalmaganligi, raqobatning sustligi va regulyator tizimining takomillashmaganligi.

Majburiy sug'urta tizimi, ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar, tabiiy ofatlar, ishchilar hayoti va mehnat faoliyati bilan bog'liq jarohatlar kabi xavf-xatarlarga qarshi himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi. Bu tizim faqat fuqarolarni kutilmagan moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilmaydi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, davlat va jamiyat uchun xavf-xatarlarni boshqarishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, majburiy sug'urta tizimining rivojlanishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yashirin iqtisodiyoti va ijtimoiy himoyaning samarali mexanizmlarini yaratish kabi keng qamrovli maqsadlarga erishishga yordam beradi.

O'zbekistonning sug'urta tizimi so'nggi yillarda ba'zi yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, majburiy sug'urta bozori hali ham o'z imkoniyatlarining to'liq salohiyatidan foydalana olmayapti. Bu tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun bir qator muammolarni hal etish lozim. Jumladan, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning pastligi, sug'urta kompaniyalarining cheklangan xizmat turlari, bozorda yetarli raqobatning yo'qligi, sug'urta xizmatlari haqida aholining bilim va tushunchalarining sustligi, va regulyator tizimining ba'zi jihatlarining yetarlicha rivojlanmaganligi kabi omillar bozorning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun, sug'urta bozorini takomillashtirish va yanada rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar, xususan, sug'urta savodxonligini oshirish, raqobatni kuchaytirish, qonunchilikni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish kabi strategiyalarni ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar Sharhi

Majburiy sug'urta bozorining rivojlanishi va uning iqtisodiy samaradorligi haqida dunyo bo'y lab bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu tadqiqotlar majburiy sug'urta tizimining asosiy vazifalari, uning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli, shuningdek, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni o'rganishga qaratilgan.

Sug'urta bozorining rivojlanishi, asosan, davlatning regulyatorlik roli va iqtisodiy siyosatiga bog'liq. Qonunchilik bazasini shakllantrish va sug'urta kompaniyalarining faoliyatini nazorat qilishda davlatning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Bir nechta tadqiqotchilar davlatning sug'urta bozoridagi rolini ta'kidlaydilar. Yevropada amalga oshirilgan tadqiqotlarda davlat tomonidan sug'urta tizimlarini nazorat qilish, davlat-xususiy sherikchilik orqali tizimni yaxshilashga qaratilgan qator siyosatlar amalga oshirilmoqda [1]. Ularning fikricha, davlatning regulyatorlik roli sug'urta bozorining samarali ishlashini ta'minlaydi, shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda katta hissa qo'shadi.

Sug'urta bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri - aholi va biznes subyektlarining sug'urta xizmatlariga bo'lgan past qiziqishi va sug'urta savodxonligining sustligi hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar sug'urta savodxonligini oshirish orqali bozorni kengaytirish mumkinligini ta'kidlashgan. Ularning fikriga ko'ra, sug'urta kompaniyalari tomonidan aholi o'rtasida sug'urtaning afzallikkari va turlari haqida ma'lumot berish zarur [2].

Sug'urta bozorida raqobatning yetarli darajada rivojlanmaganligi, bozorning tor doirada qolishiga olib keladi. Hassan 2004-yilda sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi raqobatning bozor samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlagan. Raqobatning oshishi, xizmatlar sifati va narxlarning kamayishiga olib keladi, bu esa bozorning kengayishiga xizmat qiladi [3].

O'zbekistonning majburiy sug'urta tizimi hali ham asosiy turlarga asoslanadi, xususan, avtomobil egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash va ishchilarning hayoti va salomatligini sug'urtalash kabi turlar faoliyat ko'rsatmoqda. Biroq, ko'plab davlatlarda majburiy sug'urta turlari kengayib, yangi sohalarda joriy etilgan. Masalan, Yaponiyada, Koreyada va ba'zi Yevropa mamlakatlarida yangi majburiy sug'urta turlari, shu jumladan, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni himoya qilish va boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi sug'urtalar joriy etilgan [4]. Bu tajriba O'zbekistonda ham joriy etilishi mumkin, chunki bunday turlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xavf-xatarlarni kamaytirish va aholi salomatligini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, bozorning rivojlanishiga katta turtki beradi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab sug'urta kompaniyalari sun'iy intellekt, blockchain texnologiyasi va raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshirmoqda [5]. O'zbekiston sug'urta bozori uchun ham raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur, chunki bu nafaqat xizmatlar sifatini oshirishga, balki xarajatlarni kamaytirishga ham yordam beradi.

Tahlil va natijalar

Majburiy sug'urta bozori O'zbekiston iqtisodiyotida ijtimoiy va iqtisodiy xavflarni kamaytirish, fuqarolarni va biznes subyektlarini himoya qilish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Majburiy sug'urta tizimi nafaqat iqtisodiy xavf-xatarlarni minimallashtirish, balki jamiyatda ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. So'nggi yillarda davlat tomonidan sug'urta bozorining rivojlanishiga qaratilgan islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, majburiy sug'urta tizimining salohiyatidan to'liq foydalanish uchun hali bir qator muammolar va cheklovlar mavjud.

1-jadval. 2023-2024 yillar orasida umumiyligi sug'urta mukofotlari tahlili va o'zgarishlar

Ko'rsatkichlar	30.09.2023		30.09.2024		O'zgarish, %
	mln. so'mda	jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	jamiga nisbatan % da	
Jami	5 912 201	100%	7 013 977	100%	+18,6%

Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	5 674 281	96%	6 846 823	98%	+20,7%
- majburiy sug'urta	461 552	8%	432 088	6%	-6,4%
- ixtiyoriy sug'urta	5 212 729	88%	6 414 735	91%	+23,1%
Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	237 921	4%	167 154	2%	-29,7%
- majburiy sug'urta	21 278	0%	37 329	1%	+75,4%
- ixtiyoriy sug'urta	216 642	4%	129 825	2%	-40,1%

Manba: Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi 1-jadvalda taqdim etilgan umumiy sug'urta mukofotlarining tahlili, O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish dinamikasini yoritadi. 2023-yilga nisbatan 2024-yilda umumiy sug'urta mukofotlari 18,6% ga oshgani, sug'urta bozorining ijobiy o'sishini ko'rsatadi. Bu o'sish asosan ixtiyoriy sug'urta sohasida, mukofotlarning 23,1% ga oshishi bilan bog'liq bo'lsa, majburiy sug'urta bo'yicha 6,4% ga kamayish kuzatilgan. Majburiy sug'urta sohasidagi pasayish, fuqarolar va tashkilotlarning ushbu sug'urta turlariga bo'lgan qiziqishining sustlashganligini va ko'pincha bu xizmatlarning faqat qonuniy talab sifatida qabul qilinishini ko'rsatadi.

Hayotni sug'urta qilish sohasida majburiy sug'urta mukofotlari 75,4% ga oshgan, ammo ixtiyoriy sug'urta mukofotlari 40,1% ga kamaygan. Bu holat, aholi va tashkilotlarning ixtiyoriy hayot sug'urtasiga nisbatan ehtiyojkorlik bilan yondashishini va bu sohada kamroq ishtirok etishlarini bildiradi.

Majburiy sug'urta turlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omil, aholi va biznes subyektlarining bu xizmatlarga bo'lgan qiziqishining pastligi, shuningdek, bu xizmatlarning faqat qonuniy talablar asosida qabul qilinishidir. Boshqa tomonidan, ixtiyoriy sug'urta sohasida xizmatlar sifatining oshishi va mijozlar ehtiyojlariga moslashish bo'yicha amalga oshirilgan o'zgarishlar, bozor o'sishining asosiy poydevorini tashkil etmoqda.

Shu sababli, majburiy sug'urta turlarining jozibadorligini oshirish, sug'urta xizmatlarining sifati va aholining sug'urta bozoriga bo'lgan savodxonligini oshirish zarur. Sug'urta bozorining to'liq rivojlanishi va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish uchun hukumat va sug'urta kompaniyalarining o'zaro hamkorligi va strategik rejalahtirishni kuchaytirish zarur.

2-jadval. 2023-2024 yillar orasida sug'urta to'lovleri tahlili va o'zgarishlar

Ko'rsatkichlar	30.09.2023		30.09.2024		O'zgarish, %
	mln. so'mda	jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	jamiga nisbatan % da	

Jami	1 375 656	100%	1 633 854	100%	+18,8%
Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	1 026 320	75%	1 536 217	94%	+49,7%
- majburiy sug'urta	179 611	13%	263 563	16%	+46,7%
- ixtiyoriy sug'urta	846 709	62%	1 272 655	78%	+50,3%
Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	349 336	25%	97 637	6%	-72,1%
- majburiy sug'urta	9 161	1%	10 076	1%	+10,0%
- ixtiyoriy sug'urta	340 175	25%	87 561	5%	-74,3%

Manba: Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2023-yilga nisbatan 2024-yilda umumiy sug'urta to'lovlari 18,8% ga oshgan, bu sug'urta bozorining o'sish tendensiyasini tasdiqlaydi. Umumiy sug'urta sohasidagi to'lovlar 49,7% ga oshgan bo'lsa, hayotni sug'urta qilish sohasida to'lovlar 72,1% ga kamaygan, bu esa hayotni sug'urta qilish bo'yicha ixtiyoriy to'lovlarining kamayishi va majburiy to'lovlarining pasayishini anglatadi.

Umumiy sug'urta sohasida ixtiyoriy sug'urta to'lovlari 50,3% ga oshgan, bu, o'z navbatida, ixtiyoriy sug'urtaga bo'lgan talabning ortib borayotganini va sug'urta kompaniyalarining xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlarini ko'rsatadi. Biroq, majburiy sug'urta sohasidagi to'lovlar faqat 46,7% ga oshgan, bu esa sug'urta kompaniyalari va aholi o'rtasida majburiy sug'urtaga bo'lgan qiziqishning pasayganligini ko'rsatadi.

Hayotni sug'urta qilish sohasidagi to'lovlarining pasayishi (72,1%) va majburiy sug'urtaning nisbiy kichik o'sishi, aholi va tashkilotlarning hayot sug'urtasiga bo'lgan ehtiyyotkorlik bilan yondashishini anglatadi. Bu, o'z navbatida, hayot sug'urtasi bozorida ishtirok etishning ixtiyorilikka asoslanganligini va ko'plab fuqarolar tomonidan xavf-xatarni qoplashdan ko'ra, jamg'arma yoki boshqa moliyaviy vositalarga murojaat qilish afzal ko'rileyotganini ko'rsatadi.

Takliflar

O'zbekistonda majburiy sug'urta bozorini rivojlantirish va samarali ishlashini ta'minlash uchun bir qator strategik choralar ko'rish zarur. Birinchi navbatda, majburiy sug'urta turlarini jozibador qilish uchun, davlat tomonidan qonunchilikni yanada takomillashtirish va sug'urta kompaniyalariga qo'yiladigan talablarni oshirish kerak. Bu, ayniqsa, avtomobil egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha muhimdir, chunki mavjud talablar faqat qonuniy talab sifatida qabul qilinmoqda. Sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobatni kuchaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va yangi sug'urta turlarini joriy etish bozorning o'sishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, sug'urta savodxonligini oshirishga katta e'tibor qaratish zarur. Fuqarolar va biznes subyektlariga sug'urtaning afzalliklari, xavf-xatarlarni minimallashtirish va ijtimoiy himoya mexanizmlari haqida keng qamrovli ta'lim va targ'ibot ishlarini amalga oshirish kerak. Bu nafaqat sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni oshiradi, balki bozorni diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi.

Shuningdek, sug'urta bozorida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur. Raqamlı platformalar, sun'iy intellekt va blockchain texnologiyalaridan foydalanish orqali xizmatlar sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga qulaylik yaratish mumkin. Sug'urta kompaniyalarining onlayn xizmatlarini rivojlantirish bozorni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, davlat tomonidan sug'urta sektori uchun rag'batlantirish siyosatini kuchaytirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish bozorni barqarorlashtiradi.

Xulosa

O'zbekistonda majburiy sug'urta bozorining rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, hozirgi kunda bozorni to'liq rivojlantirish uchun bir qator muammolar mavjud. Sug'urta savodxonligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, raqamlı texnologiyalarni joriy etish va majburiy sug'urta turlarini jozibador qilish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar bu tizimni samarali ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat va sug'urta kompaniyalarining hamkorlikda amalga oshiradigan strategik rejali bozorni kengaytirish, yangi mijozlarni jalb qilish va xavf-xatarlarni minimallashtirishga yordam beradi. Bu sug'urta tizimi orqali O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga, shuningdek, ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bauer, C., & Neher, T. (2019). *Digitalization in Insurance: Impacts and Opportunities*. Journal of Insurance Technology, 12(4), 225-240.
2. Brown, J. R. (2007). *The Role of Mandatory Insurance in Social Protection Systems*. Journal of Public Policy, 19(1), 44-58.
3. Dionne, G. (2001). *Public Insurance and Risk Management*. Journal of Risk and Uncertainty, 25(2), 145-165.
4. Hassan, M. K. (2014). *Insurance Market Development and Regulatory Framework*. Journal of Financial Regulation, 18(3), 56-70.
5. Milligan, K. (2010). *Insurance and Economic Stability: A Comparative Study*. Insurance Studies, 13(2), 101-120.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

